



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.....	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari.....	157
<i>Abduvaxobova Nodira</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari.....	160
<i>Ismailova Nozima Umaraliyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati.....	164
<i>Utanbayeva Dildora Abdixadirovna</i>	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
<i>Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
<i>To'raqulov Akbar Rustam o'g'li</i>	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
<i>Temirova Muyassar Abdulkarim qizi</i>	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
<i>Raximova Surayyo Otabek qizi</i>	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
<i>Biysenov Temirbek Taumuratovich</i>	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati.....	188
<i>Choriyeva Surayyo Choriyevna</i>	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
<i>Davidova Sayyora Sirojiddin kizi</i>	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
<i>Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna</i>	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish.....	201
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
<i>Mannanova Nargiza Xaydarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari215 Masharipova Kumushoy Amin qizi
	The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students.....218 Mavlonova Dildora Shukhrat kizi
	Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish222 N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova
	Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...226 Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich
	The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture230 Rajabova Shaxlo Shodmonovna
	Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati234 Ramazonova Salomat Saidovna
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash238 Saidova Gulruh Halim qizi
	O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida).....242 Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna
	Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников246 Истамова Нигора Азимжановна
	Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari249 Xakimova Dildora Mashrabjonovna
	Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов253 Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна
	Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida257 Rashidova Gulnoza G'ulomovna
	Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati261 Xaydarov Sulaymon Amirqulovich
	Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar.....265 Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li
	Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari268 Abduraximov Asror Sultonali o'g'li
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....271 Adizova Nilufar Quvondiq qizi
	Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati274 Alimov Asadulla Urokbayevich
	Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri278 Alimova Umida Jumaboy qizi
	Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....282 Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna
	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi.....286 Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish289 Islomova Xafiza Azamatovna
	Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish.....293 Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi
	Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri.....298 Kozimova Nargiza Istam qizi
	Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili303 Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna
	Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv309 Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari.....	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tualovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati.....	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	



ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH



Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi (PhD)

ORCID: 0009-0005-9037-1052

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishning maqsad va vazifalari ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada mustaqil ta'limni tashkil etish usul va yo'nalishlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, nazariy va amaliy bilimlar, baholash.

Abstract: This article discusses the significance of goals and objectives in organizing independent learning for the subject "Methods of Teaching the Mother Tongue." Furthermore, the article explores various approaches and directions for structuring independent learning.

Key words: Independent study, lecture, practical training, theoretical and practical knowledge, assessment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цели, задачи и значение организации самостоятельного обучения по методике преподавания родного языка. Кроме того, в статье раскрываются способы и направления организации самостоятельного обучения.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, лекция, практическое занятие, теоретические и практические знания, оценивание.

KIRISH

Ona tili o'qitish metodikasi fani bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy mahoratni shakllantiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bu fanni chuqur o'zlashtirish uchun faqatgina auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, balki mustaqil ta'limni samarali tashkil etish katta ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim jarayoni talabning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim platforma vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son¹ qarorda mustaqil ta'lim ahamiyatini ko'rsatib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Feruz Mustafoyeva fikricha, "Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
- fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar"^[1, 1-b].

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5193564>

Yana bir tadqiqotchi D. Zakirov mustaqil ta'lim bo'yicha: "Talaba mustaqil ish bajarishi uchun eng avvalo tanlov asosida mavzuni o'zi tanlashi, albatta, o'qituvchi tomonidan ishning borishi yuzasidan tavsiya va maslahatlar olishi lozim. Mustaqil ish hajmi mavzuning oddiy va murakkabligidan kelib chiqishi, unga turli ilovalarni majburiy tarzda kiritilmasligi, yoritilish erkinligi (talaba xohlasa ilmiy rasm sifatida chizib bersin), muayyan laboratoriya, tajriba natijasiga tayanilishi lozim", [2, 1384-b] deya o'z qarashlarini bayon etadi.

Bundan tashqari, Z. Shamirzayeva "O'rganilayotgan mavzuga va murakkablik darajasiga qarab ular farq qilishi mumkin, ammo asosiylari, qoida tariqasida, quyidagilar:

- o'quv jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;
- ilmiy adabiyotlar va boshqa axborot manbalari bilan samarali ishlash qobiliyatini shakllantirish;
- bilimlarni mustaqil ravishda olish va amaliyotda qo'llash;
- tanqidiy fikrlash, tahliliy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish;
- vaqtni rejalashtirish va tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish va ishni baholash ko'nikmalarini rivojlantirish", [3, 127] deya ta'kidlaydi.

Mustaqil ta'lim atamasiga tadqiqotchi S. Ergasheva o'z ishlarida quyidagicha ta'rif beradi: "Mustaqil ta'lim – bu o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ta'lim emas, balki talaba o'z ta'lim jarayonini boshqaradigan jarayondir. "Boshqaruv" deganda o'rganish harakatini nazarda tutilmaydi; o'rganish, bu ma'noda, har doim mustaqildir – talabalar uchun ularning mustaqil ta'lim jarayonini hosil qilib bo'lmaydi. Ammo mustaqil ta'lim jarayoni o'rganishdan ko'ra ko'proq narsani o'z ichiga oladi. Jarayon o'rganish va qayta ko'rib chiqish, yozish va muhokama qilish, rejalashtirish va mulohaza yuritish, monitoring va baholash, mukofotlar va sanksiyalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi ko'pincha bu vazifalarning ko'pini talabani ta'limi davomida turli darajada boshqaradi, talaba mustaqil ta'limi davomida ko'p sohalarni qisqartiradi.

Mustaqil ta'lim – bu o'quv jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash kabi o'qituvchi emas, balki talabani o'zi o'rganish jarayonini boshqarishidir. Mustaqil ta'limni mustaqil fikrlash bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Mustaqil fikrlash qobiliyatlari – bu o'z, tanqidiy, asosli qarorlariga erishish va himoya qilish bilan bog'liq. Ushbu ikki turdagi ko'nikmalar bir-biridan mustaqil ravishda rivojlanishi mumkin" [4, 754-b].

Bundan tashqari, tadqiqotchi: "Talabalarga mustaqil ta'limning samarali usullari, masalan, hamkorlikda guruh muhokamalari, takrorlash usullari, samarali qayd qilish va o'qishning samarali usullari bo'yicha ko'rsatmalar ushbu bosqichida odatda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlarida bo'ladi. Bu ularning kengaytirilgan loyihalash malakalari (KLM) bilan shug'ullanishi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samaraliroq bo'lishi mumkin. Masalan, jadval, iloji bo'lsa, yo'naltirilgan KLM o'quv mashg'ulotlari – talabalar mustaqil ishlaydilar, lekin kerak bo'lsa, yo'l-yo'riq berish uchun o'qituvchi hozir bo'ladi. KLM jarayonining boshida ham, jarayonida ham ishonchli tadqiqot manbalarini qanday aniqlash, mukammal tadqiqot loyhasini qo'llab-quvvatlash uchun qancha tadqiqot talab qilinishi va manbalarga qanday murojaat qilish kabi sohalarida tadqiqot ko'nikmalarini o'rgatish samaralidir", kabi qarashlarini bayon qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada filologiya yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan ona tili o'qitish metodikasi fanini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limga ko'proq e'tibor qaratilar ekan, mustaqil ta'lim talabaga o'z-o'zini nazorat qilish imkonini berishi, mustaqil ta'lim aynan talaba tomonidan boshqariladigan ta'lim jarayoni ekanligi tahlil qilindi. Mustaqil ta'lim fanga ajratilgan auditoriya soatlaridan ko'p bo'lib, o'quv kursining asosini tashkil qilishi hamda uni samarali tashkil etish dolzarb ekanligi metodologik izohlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ona tili o'qitish metodikasi fanidan o'quv rejaga muvofiq jami o'quv soatlari 270 soatni tashkil qiladi. Bundan auditoriya soatlari 120 soat bo'lib, undan 40 soat ma'ruza, 60 soat amaliy va 20 soat laboratoriya mashg'ulotlari hisoblanadi. Mustaqil ta'lim esa 150 soatni tashkil qiladi. Aytish joizki, mustaqil ta'lim soati jami auditoriya soatlaridan ham ko'p bo'lib, o'quv kursining asosidir. Shuni nazarda tutgan holda, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasmga qarang).



Ona tili o'qitish metodikasi fani



■ Ma'ruza ■ Amaliy ■ Laboratoriya ■ Mustaqil ta'lim

1-rasm: Ona tili o'qitish metodikasi fani soatlari

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz.

Nazariy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish mustaqil ta'lim soatlarining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, uni qanday tartibda amalga oshirish bo'yicha to'xtalib o'tamiz.

Ona tili o'qitish metodikasi fani doirasida talabalar o'qitish prinsiplari, metodlari, vositalari va dars turlari haqida nazariy bilimlarni egallaydilar. Mustaqil ta'lim davomida ushbu bilimlarni chuqurlashtirish uchun ayrim tavsiyalarimizni taklif qilamiz.

- **Ilmiy va metodik adabiyotlarni o'rganish.** Darsliklar, o'quv qo'llanmalaridan tashqari, pedagogik-psixologik, lingvistik va metodik yo'nalishdagi maqolalar, monografiyalar bilan tanishish lozim. Ayniqsa, ona tili o'qitishining dolzarb muammolariga bag'ishlangan maqolalar kelajak o'qituvchiga kengroq tasavvur beradi.
- **Darsliklarni tahlil qilish.** Amaldagi ona tili darsliklarini, o'qituvchi kitoblarini chuqur tahlil qilish orqali metodik yondashuvlarni o'rganish, mavzularning ketma-ketligi va o'qitish usullarini solishtirish mumkin. Bundan tashqari, darsliklarni yaqindan o'rganish darslarda foydalaniladigan metodlarning tadrijiyligini ham ta'minlashi mumkin.
- **Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish** mustaqil ta'limning asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ularni amaliyotga tatbiq etish mustaqil ta'limning eng muhim qismidir. Mustaqil ta'limning maqsadi ham shundan iborat. Bunda quyidagi topshiriqlar katta foyda beradi.
- **Dars ishlanmalari tuzish.** Muayyan mavzu (masalan, 5-sinfda "Ega va kesim" mavzusi) bo'yicha to'liq dars ishlanmasi tuzish, unda zamonaviy o'qitish texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanishni aks ettirish lozim. Ushbu usul nisbatan eskirgan hisoblanadi. Ammo ushbu usul orqali talabalar reja tuzish, darsni tasavvur qilish, muayyan maqsadlarni oldindan belgilash kabi mahoratlarga ega bo'ladi. Dars ishlanma bunda xarita vazifasini o'tashi mumkin.
- **O'qitish metodlari bo'yicha taqdimotlar tayyorlash.** "O'zbek tilini o'qitishda aqliy hujum metodidan foydalanish", "Matn bilan ishlashning interfaol usullari" yoki "Savodxonlik" kabi mavzularda taqdimotlar tayyorlash orqali turli metodlarning xususiyatlari va qo'llanilishini o'rganish mumkin.
- **Video darslarni tahlil qilish.** Internetdagi ochiq manbalardan tajribali o'qituvchilarning video darslarini topib, ularning darsni tashkil etish uslubi, nutq madaniyati, o'quvchilar bilan muloqotini tahlil qilish ham mustaqil ta'limning muhim qismi hisoblanadi. Bunda talaba solishtirish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.
- **Ilmiy-tadqiqot faoliyati elementlarini o'zlashtirish** orqali talabalarda gnosemik (tadqiqotchilik – malaka) bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim doirasida talaba ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini ham shakllantirishi lozim. Bu uning kelajakda malakali mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega.

- **Annotatsiya va referatlar yozish.** O'rganilgan ilmiy manbalar bo'yicha annotatsiya yozish, ma'lum bir metodik muammo yuzasidan referat tayyorlash talabalarni izlanishga xizmat qiladi.
- **Kichik ilmiy maqolalar yozishga harakat qilish.** Mustaqil ta'lim jarayonida o'zini qiziqtirgan biror mavzu bo'yicha kichik ilmiy maqola yozib ko'rish va uni qayta ishlash tavsiya qilinadi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari ham talaba tomonidan, ham professor-o'qituvchilar tomonidan muntazam nazorat qilinishi kerak. Shundagina bu mashg'ulot kutilgan natijani berishi mumkin. Bu borada t.f.d. (DSc), prof. v. b. D. I. Kamalova boshchiligidagi jamoa: "Har haftaning oxirgi kunida, ta'lim oluvchi hafta davomida bajargan ishlarini sarhisob qilib, o'zi mustaqil tuzgan rejaning bajarilishini tekshirib chiqishi kerak. Bunday nazoratdan so'ng talaba o'zi bajargan ishlarga haqqoniy yondoshsa, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish ancha oson kechadi. Talaba mustaqil ishini bajarishda o'zining kuchigagina ishonishi shart. U oldinda ko'p qiyinchiliklar kutayotganini esdan chiqarmasdan, ularni yengishga o'zini tayyorlashi kerak. Turli yo'nalishdagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar ularning "Mutaxassislik tavsifnomasi"da ko'rsatilgan bo'ladi. Ularda quyidagicha talablar mavjud:

- bilimni muntazam o'stirib va rivojlantirib borish;
- ilmiy-texnik axborotlarni qidirishda va qo'llashda samarali usullardan foydalanish;
- mutaxassislik yo'nalishiga mos eksperiment o'tkazishni bilish.

Bu talablar talabalarning bilish faoliyatiga doir "umumlashgan usullar"ni tuzish zarurligini taqozo qiladi. Umumlashgan usullar qaysi bir fanni o'rganishda shakllantirilsa va boshqa fanlarni o'rganishda, amaliy-seminar mashg'ulotlarni bajarishda erkin qo'llanilsa, "umumlashgan usullar" deyiladi. Boshqacha aytganda, "umumlashgan usul" deb keng qo'llaniluvchi, umumiy xususiyatga ega bo'lgan usullarga aytiladi", [5, 184-b] qabilida o'z qarashlarini keltiradi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, quyidagi chizmani taqdim etamiz (2-rasmga qarang).



2-rasm: **Mustaqil ta'limni tashkil qilish bosqichlari**

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tizimli va rejali tashkil etish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularda amaliy ko'nikmalar va ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun muhimdir. Bu jarayon talabaning o'z-o'zini rivojlantirishiga, ilmiy salohiyatini oshirishiga va kelajakda malakali pedagog kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Mustaqil ta'limni to'g'ri yo'lga qo'ygan talaba nafaqat bilim egasi, balki o'z kasbining haqiqiy ustasiga aylanadi. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish uning ahamiyatini oshiradi. Jumladan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mustafoyeva F. Mustaqil ta'limni tashkil etishning ilmiy asoslari va uning amaliy foydalari. Zamonaviy fan va tadqiqotlar, 2024, 3(1), 1–4-betlar.
2. Zakirov D. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishini tashkil etishning yangi usullarini yaratish. Academic Research in Educational Sciences, 3(5), 2022, B. 1382–1387.
3. Shamirzayeva Z. Mustaqil ta'limning maqsadi, shakli, mazmuni va vazifalari. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Plano, Texas, USA, 1-iyun, 2023, B. 125–128.
4. Ergasheva S. Mustaqil ta'lim olishning ta'lim tizimi tarkibiy qismi sifatida fleksibilizatsiyasi. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, (E-ISSN: 2181-1784) SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7, 3(6), iyun, 2023, B. 754–760.
5. O'rinova O., Hamidova S. Mustaqil ta'limni tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar. Science Research, B. 182–186.
6. Axmedova M. E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). Metodik qo'llanma, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi, MChJ, Toshkent – 2022, 121-b.
7. Usmonov V. V. Talabalarning mustaqil ishi: kasb-hunar ta'limi jarayonida tashkil etish va boshqarish [Matn]: monografiya. Ulyanovsk: UIGGU, 2006, 275-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.